Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319775

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

AHOLINING DEMOGRAFIK QARISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI

MATKARIMOVA INTIZOR ATABAEVNA
"Ma'mun universiteti" Nodavlat ta'lim muassasasi,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi,
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) dotsent,
SHARIPOVA ZULAYHO ABDIRIMOVNA
"Iqtisodiyot" kafedrasi v.b.dotsent (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda demografik qarish jarayonining hozirgi holati va kelgusidagi tendensiyalari o'rganilgan. Olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, mamlakatimiz aholisi hozirda yosh qarish guruhiga mansub bo'lib, o'rtacha umr ko'rish muddati o'sishi va tug'ilish darajasi pasayishi tufayli qarish jarayoni sekin tezlashmoqda. Bu iqtisodiy faol aholining kamayishi, pensiya xarajatlari ortishi va qariyalarga tibbiy xizmat talabi kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari va tug'ilishdagi kutilayotgan umr davomiyligining ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Aholi, demografik qarish, O'zbekiston demografiyasi,60 yoshdan katta aholi ulushi, jinsiy tarkibi, o'rtacha umr ko'rish muddati, iqtisodiy faol aholi, pensiya tizimi, pensiyaga chiqish yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, "yosh qariyalar", barqaror rivojlanish, demografik tendensiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается текущее состояние и будущие тенденции процесса демографического старения в зарубежных странах и Узбекистане. Согласно исследованиям ученых, население нашей страны в настоящее время принадлежит к группе молодого старения, и процесс старения медленно ускоряется из-за увеличения средней продолжительности жизни и снижения рождаемости. Это приводит к сокращению экономически активного населения, увеличению пенсионных расходов и повышению спроса на медицинские услуги для пожилых людей. Также были проанализированы основные демографические показатели Узбекистана и значение ожидаемой продолжительности жизни при рождении.

Ключевые слова. Население, демографическое старение, демография Узбекистана, доля населения старше 60 лет, половой состав, средняя продолжительность жизни, экономически активное население, пенсионная система, пенсионный возраст, социально-экономические последствия, "молодая старость", устойчивое развитие, демографические тенденции.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Matkarimova Intizor Atabaevna, Sharipova Zulayho Abdirimovna (2026). Aholining demografik qarishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'siri. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319775

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Annotation. This article examines the current state and future trends of the demographic aging process in foreign countries and Uzbekistan. According to research by scientists, the population of our country currently belongs to the young aging group, and the aging process is slowly accelerating due to an increase in average life expectancy and a decrease in the birth rate. This leads to a reduction in the economically active population, an increase in pension costs and an increase in demand for medical services for the elderly. The main demographic indicators of Uzbekistan and the importance of life expectancy at birth were also analyzed.

Keywords. Population, demographic aging, demography of Uzbekistan, proportion of the population over 60, gender, average life expectancy, economically active population, pension system, retirement age, socio-economic consequences, “young old age”, sustainable development, demographic trends.

Kirish. Kuchli jamiyatdan kuchli davlatga o‘tish jarayonida aholining tabiiy va demografik nuqtaiy nazardan o‘zgarishlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat tashkil topgandan to hozirgi kunga qadar rivojlanish ijtimoiy iqtisodiy va demografik jarayonlarni hisobga olgan holda o‘rganishni taqozo etadi. Aholi jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi kuch va asosiy iste’molchi sifatida o‘zini namoyon etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tarix aholi bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagi PQ-114-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (Milliy statistika qo‘mitasi) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida Prezident huzuridagi Statistika agentligiga (Milliy statistika qo‘mitasi) 2025−2026 yillarda aholini ro‘yxatga olish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatildi [1].

Ma’lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilmagan. Bu borada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, aholini ro‘yxatga olish zarurati tug‘ildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi O‘RQ-611-son Qonuni qabul qilinganligi [2], keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-173-son Farmoni rasman tasdiqlandi. Shuningdek, 2025-yil 7-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №629-sonli qarori qabul qilindi [3]. Hamda BMT aholini kamida 10 yilda bir marta ro‘yxatga olishni tavsiya qiladi. Ushbu ro‘yxatga olish milliy siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirish hamda mamlakat rivojlanishini kuzatish uchun asosiy axborotlar taqdim etilishini ta’minlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti hisobotiga ko‘ra**, dunyo aholisi yana 50-60 yil o‘sishda**

davom etishi kutilmoqda, 2080 yillarning o‘rtalariga kelib taxminan 10,3 milliardga yetadi. Hozir
2025-yil boshiga kelib dunyo aholisi soni 8,1 milliarddan oshdi (ayrim manbalarda 8,09 milliarddan 8,2 milliardgacha ko‘rsatilgan), 2025-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, dunyo aholisi taxminan 8,214 milliard kishiga yaqin. BMT **va boshqa demografik prognozlarga ko‘ra, dunyo aholisi soni 2026-yil boshiga borib taxminan milliard kishidan oshishi kutilmoqda** [9].

Aholi sonining eng yuqori cho‘qqisiga erishilgandan keyin uning qisqarishi, ya’ni asr oxiriga kelib 10,2 milliard kishiga tushishi kuzatiladi. Hozirda dunyo aholisining to‘rtdan bir qismi aholisi eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan mamlakatlarda - Xitoy, Germaniya, Yaponiya va Rossiyada istiqomat qiladi. Mutaxassislarning fikricha, asr oxiriga kelib Xitoy, Yaponiya va Rossiyada aholi soni eng ko‘p qisqaradi. Qolaversa, 2037 yilga borib, Markaziy va Janubiy Osiyo eng ko‘p aholi yashaydigan mintaqalarga aylanadi [9]. Shu bois, demografik jarayonlarni tartibga solish va boshqarish barcha davlatlar uchun muhim vazifaga aylanib, bu borada keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Demografik qarish ya’ni aholining qarishi mavzusi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyot va demografiya fanlarida markaziy o‘rin egalladi. Bu jarayon demografik o‘tishning natijasi bo‘lib, tug’ilish darajasi pasayishi va umr davomiyligi oshishi tufayli yuzaga keladi. Ko‘plab olimlar aholining qarishi iqtisodiy o‘sishga, mehnat bozoriga, sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot tizimlariga ta’sirini o‘rganib, uning salbiy va ijobiy tomonlarini muhokama qilganlar va biz maqolamizda Xorijlik va O‘zbek olimlarininng tadqiqotlarini tahlil qilib o‘tsak. Dastlabki nazariyalar aholining ko‘payishiga e’tibor qaratgan bo‘lsada, keyinchalik hozirgi zamon olimlari qarishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ustida tadqiqotlar olib borishni kuchaytirishgan.

XX asr boshlarida demografik o‘tish nazariyasi asoschisi Frenk Notesteyn (1902-1983) aholining o‘sishi bosqichlarini tasvirlab, rivojlangan mamlakatlarda tug’ilish va o‘lim darajasi pasayishi natijasida aholining qarishini bashorat qilgan. U aholining qarishi iqtisodiy rivojlanishning natijasi ekanligini ta’kidlagan, ammo bu jarayon pensiya tizimi va sog‘liqni saqlash xarajatlarini oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan. Amerikalik demograf Anselm Koale (1917-2002) demografik o‘tishni matematik modellashtirib, aholining qarishi iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi haqida xulosa chiqargan ya’ni mehnatga layoqatli aholining ulushi kamayganda, milliy daromad o‘sishi pasayadi deb ta’kidlagan.Koale va Notesteynning ishlarini davom ettirgan amerikalik iqtisodchi Devid Blum va uning hamkasblari “Aholi qarishining iqtisodiy o‘sishga ta’siri” (2011) tadqiqotida qarishning salbiy ta‘sirini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, qarish mehnat ishtirokini va jamg’arma darajasini pasaytiradi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ta’sir kamroq

bo‘ladi, chunki demografik dividendlardan foydalanish mumkin. Blum qarishni “demografik bomba” deb atab, ammo sog’liqni saqlash va ta’lim investitsiyalari orqali yumshatilishi mumkinligini ta’kidlaydi.Zamonaviy tadqiqotlarda qarishning ijobiy tomonlariga e’tibor kuchaymoqda. Amerikalik olim Meri Uorner “Demografik qarish: iqtisodiyot, jamiyat va mintaqalarni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati” (2025) maqolasida qarishni passiv muammo emas, balki jamiyatni qayta tashkil etish imkoniyati deb ko‘rsatadi. U psixologik nazariyalar asosida qarishni iqtisodiy o‘sishga moslashtirishni taklif etadi ya’ni shahar rejalashtirish, ijtimoiy siyosat va mintaqaviy rivojlanish orqali deya ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi, aholi sonining tez o‘sishi va qarishning tezlashishi tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan o‘rganilib qator tadqiqotlar olib borilgan. **Demografik jarayonlar ustida ko‘pgina tadqiqotlarga** o‘zbek olimlaridan M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, R.A.Ubaydullaeva, O.B.Otamirzayev, L.P.Maksakova, D.B.Bobojonova, M.B.Bo‘riyeva va boshqalar ham hissa qo‘shganlar ular O‘zbekiston demografiyasining global va mahalliy muammolarini hal qilishga yordam berishgan [5,6,7,8,9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosini iqtisodchi olimlarning adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tabiiy avlodlar almashuvi ya’ni, tug’ilish va o‘lish asosda aholini takror barpo etish jarayoni, aholi ko‘payishining o‘ziga xos xususiyatlari, aholining qarishi bo‘yicha ilmiy yondashuvlari, shuningdek, **aholi sonining eng yuqori cho‘qqisiga erishilgandan keyin uning qisqarishi** xalqaro uslubiyotlar va mezonlar tamoyillar tashkil etadi. Mavzuni o‘rganish jarayonida statistik kuzatish, umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar, ilmiy absrtaksiyalash, statistik rasm va jadvallar usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga kelib har bir hudud aholini ham miqdor, ham sifat jihatidan muntazam o‘rganib kelgandir. Demografiya asosiy e’tiborni tabiiy avlodlar almashuvi ya’ni, tug’ilish va o‘lish asosda aholini takror barpo etish jarayoniga qaratadi.

Demografiyada quyidagi qarish shkalasi qabul qilingan:

- agar 65 yosh va undan yuqori shaxslar salmog’i, umumiy aholi sonidan 4%ni tashkil etsa-aholi yoshi hisoblanadi;
- 4 dan 7%gacha qarish chegarasida;
- 7% yuqori, qari aholi hisoblanadi.

Aholini qarish jarayoni global masalalardan biri hisoblanadi. BMT prognozi bo‘yicha 2050 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham 65 yoshdan yuqori aholi soni ikki marotaba oshadi.

Modernizatsiyalashtirish sharoitida aholini tabiiy o‘sish hollari nafaqat biologik qonuniyatlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart -sharoitlar bilan bog’liq holda sodir etilishi qayd etilgan. Jumladan urbanizatsiya jarayoni, sanoatni rivojlanishi, ayollarning bilim darajasini ortishi, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini murakab, aqliy, malakali aholini ortib, kam aholi o‘rtasida o‘lishni keskin kamayishi o‘rtacha umr ko‘rish davrini esa uzayishiga sabab bo‘ladi. Bunday holat jamiyatda qariyalar salmog’ini ortib borishiga olib keladi.Aholini qarish muammosi rivojlangan mamlakatlarda hammadan oldin boshlangan bo‘lsa, lekin bu jarayon kelajakda butun dunyoni qamrab oladi. Darhaqiqat, **Birlashgan Millatlar Tashkilotining** Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti hisobotiga ko‘ra**,** “Hozirda sayyoramizda o‘rtacha umr ko‘rish 73,3 yoshni tashkil etadi - u allaqachon koronavirus pandemiyasigacha bo‘lgan darajaga qaytgan, shuningdek, tahlilchilarga ko‘ra, 2054 yilga borib o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 77,4 yoshga yetishi, 2080 yilga borib, 65 yoshdan **oshganlar soni 18 yoshgacha bo‘lganlarnikidan ko‘p bo‘ladi, 2070 yillarning oxiriga kelib, qariyalar soni 2,2 milliardga yetadi” deyiladi hisobotda. [11].**


Ma’lumki qarish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar qatoriga aholi soni, aholining tig’ilishi, o‘lishi, o‘rtacha umr ko‘rishini kiritish mumkin va bizning davlatimiz misolida ularning tahlilini quyidagi rasm va jadvallarda keltirdik.

	2025 yil	2026 yil	*O‘sish sur’ati, % da*
O‘zbekiston Respublikasi	**37 543,2**	**38 236,7**	**101,8**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 029,7	2 053,2	101,2
Viloyatlar:			
Andijon	3 461,0	3 521,8	101,8
Buxoro	2 077,0	2 107,0	101,4
Jizzax	1 537,6	1 566,9	101,9
Qashqadaryo	3 639,3	3 717,0	102,1
Navoiy	1 094,7	1 111,9	101,6
Namangan	3 131,7	3 190,8	101,9
Samarqand	4 297,5	4 379,8	101,9
Surxondaryo	2 945,5	3 011,0	102,2
Sirdaryo	930,8	946,3	101,7
Toshkent	3 108,5	3 160,7	101,7
Farg‘ona	4 144,7	4 223,0	101,9
Xorazm	2 032,4	2 069,2	101,8
Toshkent sh.	3 112,8	3 178,1	102,1

1-rasm.Doimiy aholi soni, ming kishi [12]

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2026 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38 236,7 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko‘paygan. 2025 yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 879,6 ming nafarni, vafot etganlar 177,1 ming nafarni tashkil etib,

tabiiy o‘sish 702,5 ming kishiga teng bo‘ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko‘chib kelganlar soni 1159 kishini va mamlakatdan xorijga ko‘chib ketganlar soni 10117 kishini, qayd etilgan nikohlar 267,1 ming birlikni, nikohdan ajralishlar 46,9 ming birlikni tashkil etgan. Doimiy yashash hududi bo‘yicha shahar joylarda 19 471,7 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 50,9%), qishloq joylarda esa 18 765,0 ming kishi (49,1%) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 18 979,0 ming kishini (49,6%), erkaklar esa 19 257,7 ming kishini (50,4%) tashkil etmoqda.(1-rasm).



2-rasm.Tug’ilganlar va vafoat etganlar soni, ming kishi [12]

Mamlakatimizda Milliy Statistika Qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug‘ilganlar soni 879,6 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 23,2 promilleni tashkil etdi. Tug‘ilganlar soni 2025 yilning yanvar-dekabr oylarida 2024 yilning mos davriga nisbatan 46,8 ming nafarga kamaygan. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra vafot etganlar soni 177,1 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o‘lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025 yilning yanvar-dekabr oylarida 2024 yilning mos davriga nisbatan 2,7 ming nafarga ko‘paygan (2-rasm).

Aholi jinslari bo‘yicha erkak va ayollarga bo‘linsa ikkalasi o‘rtasidagi solishtirish ma’lumotlari jinslar bo‘yicha tarkibiy deb ataladi.2-3 jadval tahlillariga qaralsin. Jinsiy tarkibi ikki xil usul bilan solishtiriladi:

- birinchi usulda jami aholiga nisbatan ayol va erkaklar sonini salmog’i;
- ikkinchi usulda esa har 1000 nafar ayollarga to‘g’ri keladigan erkaklar yoki aksincha

Jinsiy tarkib tuzilishiga ikki omil ta’sir qiladi. Jumladan, 1) Demografik; 2) Ijtimoiy-iqtisodiy;

Demografik omil - qizlar va bolalarning tug’ilishiga, shu bilan birga erkak va ayollarning o‘lim darajasiga, hamda aholi migratsiya jinsiy intiksivligini farqiga bog’liq. Umuman olganda o‘g’il bolalar qizlarga nisbatan ko‘p tug’ilar (100 ga 105). Bir yoshgacha bolalar o‘limi ichida o‘g’il bolalar soni ortiqroq bo‘ladi.

Bundan tashqari yoshi katta bo‘lgan sari erkaklarni o‘limi (o‘rtacha umr ko‘rish) ortish natijasida ayollar ortib boradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omilga kelsak, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi bo‘yicha (korxona erkak ishchi kuchini talab qiladi), ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni hamda ulushlar evaziga tarkibda o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi - tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari sonidir. Bunda ushbu yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi o‘rtacha yosh farqlari sog‘liqni saqlash va ijtimoiy siyosatda alohida yondashuvlarni talab qiladi.

1-jadval.O‘zbekiston Respublikasida tug’ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ayollarning 2013-2024 yillardagi holati [12]

Klassifi-kator	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O’zbekiston Respub-likasi	75,8	75,8	76	76,2	76,1	77	77,4	75,5	75,8	76,6	76,9	77,3
Qoraqalpo-g’iston Respub-likasi	74,3	74,4	74,9	74,8	75,3	75,6	76,4	74,9	75,6	75,1	75	75,1
Andijon viloyati	73,9	74,3	74,4	74,4	74,2	74,8	75,9	75,2	75,1	76,2	76,5	75,5
Buxoro viloyati	76,2	76,6	77,1	77,4	77,4	78,4	78,1	75,8	76,2	77,6	78,5	77,9
Jizzax viloyati	79,4	80,2	79,4	80,5	80,3	82,1	82,2	76,7	77,4	77,2	77	78,5
Qashqadaryo viloyati	76,9	76,2	77	76,8	76,3	77	77,7	76,4	75,7	74,7	75,1	76,3
Navoiy viloyati	75,6	75,7	76,3	76,3	76,1	77,6	77,4	75,7	76,7	78,7	78,1	78,2
Namangan viloyati	75,2	75,2	75	75,2	74,7	76,2	76	75	75,6	76	76,2	76,4
Samarqan viloyati	76,1	76,1	76,5	76,5	76,3	77,1	77,8	75,7	76	76,1	76,3	77
Surxondaryo viloyati	76,2	76,2	76,4	76	75,3	76,4	77,3	75,5	74,7	74	74,4	75,8

Sirdaryo viloyati	72,7	72,5	72,6	72,4	72,6	73,5	74	74,2	74,4	74,2	74,1	74,3
Toshkent iloyati	75,3	75,6	75,8	76	76,4	76,9	77,6	75,1	75,2	78,4	78,3	77,9
Farg‘ona iloyat	75,6	75,6	75,8	76,5	76,2	77,4	77,5	76,5	76,7	77,3	77,5	78,4
Xorazm viloyati	75,4	74,8	75,2	74,6	74,9	75,7	75,4	74,3	74,8	75,4	76,3	76,8
Toshkent shahri	77	77,2	77,1	77,4	78,1	79	79,6	75,2	76,9	78,9	79,8	79,8

O‘zbekiston Respublikasida tug’ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ayollarning 2013-2024 yillardagi holati 1–jadval ma’lumotlarining tahliliga qaraganda tug’ilishda kutilayotgan umr davomiyligi yillar davomida o‘sgan. Ayollar odatda erkaklarga nisbatan uzoqroq yashashadi, bu esa ayollar uchun maxsus sog‘liqni saqlash dasturlari va keksayganda ijtimoiy qo‘llab quvvatlash xizmatlariga ehtiyojni oshiradi. BMT Prognozlariga ko‘ra, 2050-yilgacha dunyo bo‘yicha har o‘n ayolning deyarli ikki nafarining (18 %) yoshi 65 dan yuqori bo‘ladi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida [4] mamlakatimizda aholining o‘rtacha umr davomiyligini 2030 yilga borib oshirish ya’ni o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish masalasini alohida e’tiborga olib, dunyo bo‘yicha o‘rtacha umr davomiyligi 76 yosh hisoblanadi, 2020 yilda O‘zbekistonda o‘rtacha umr davomiyligi 74.6 yosha oshgan edi, 2024 yilda o‘rtacha umr davomiyligi 76 yoshga etdi.

2-jadval.O‘zbekiston Respublikasida tug’ilishda kutilayotgan umr davomiyligi erkaklarning 2013-2024 yillardagi holati [12]

Klassifi-kator	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O’zbekiston Respublikasi	71,1	71,1	71,2	71,4	71,3	72,3	72,8	71,2	71,7	72,1	72,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	69,6	70	70,4	70,7	70,1	70,9	71,6	70,3	71,4	70,6	70,5
Andijon viloyati	70,5	70,3	70,3	70,7	70,1	71,4	72,6	71,5	71,5	72,8	72,9
Buxoro viloyati	73,1	73,3	72,9	73,6	73,6	74,7	74,9	72,3	74,5	74,2	75,2
Jizzax viloyati	72,9	72,4	72,6	72,3	71,9	73,1	74	72	72,8	71,2	72
Qashqadaryo viloyati	73,1	72,4	72,7	72,4	72,3	72,7	73,5	72,4	72,1	70,5	71,5
Navoiy viloyati	71,7	71,7	72,4	71,7	72,2	74	73,6	71,8	72,3	74,8	74,2

Namangan viloyati	71,6	71,3	71,3	72	71,7	73,1	73,4	71,9	72,3	72,9	72,7
Samarqand viloyati	71	71,4	71,1	71,6	71,8	72,5	72,6	71,2	71,3	71,3	71,6
Surxon-daryo viloyati	72,1	72,2	72,4	72,1	71,3	72,5	72,9	71,3	71,1	70,4	71,3
Sirdaryo viloyati	68,1	68,5	68,8	68,2	68,5	69,8	69,8	70	69,6	69,5	69,4
Toshkent viloyati	69,5	69,3	69,6	70,2	70,3	71,1	71,8	69,8	70,1	72,6	72,3
Farg‘ona viloyati	71,8	71,6	71,8	72,5	72,4	73,4	73,7	72,5	73	73,4	73,9
Xorazm viloyati	71	70,5	70,6	70,9	70,9	71,5	71,6	70,2	70,6	71	72,2
Toshkent shahri	69,4	69,4	69,8	70,1	70,5	71,7	72,5	69,4	71,5	72,7	74

2-jadval malumotlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki O‘zbekiston Respublikasida tug’ilishda kutilayotgan erkaklarning umir davomiyligi 2013-2024 yillarda ayollarning tug’ilishda kutilayotgan umir davomiyligi bilan solishtirganda kamaygan bo‘lsada, erkaklarning umir davomiyligi yillar davomida o‘sgan. Erkaklar odatda ayollarga nisbatan kam yashashadi. Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ahamiyati shundaki, bu ko‘rsatkich davlatdagi umumiy sog’liq darajasi, hayot sifatini, tibbiy xizmatlarni va turmush sharoitlarini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkich aholining umumiy farovonligi va ijtimoiy taraqqiyoti darajasini baholashda muhimdir. Shu sababli, bu ko‘rsatkichni oshirish davlat siyosati va strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali davlatlar aholining sog‘lom va farovon hayot kechirishini ta‘minlash uchun qanday choralar ko‘rayotganini ham kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Demografik qarish - aholi tarkibida keksalar (odatda 60 yoki 65 yoshdan yuqori) ulushining ortib borishi jarayonidir. Bu holat tug‘ilish darajasining pasayishi va umr ko‘rish davomiyligining uzayishi natijasida yuz beradi. Bu borada aholi tarkibida keksayish tendensiyasi kuzatilayotgan davlatlar uchun pensiya tizimi, sog‘liqni saqlash xizmatlari va keksalarni qo‘llab-quvvatlash muhim bo‘lib, bu sohalarga ko‘proq e‘tibor qaratish zarur. Keksaygan aholiga ega davlatlar uzoq muddatli ijtimoiy siyosat ishlab chiqishi kerak. Ushbu tushuncha iqtisodiyot, mehnat bozori, pensiya tizimi va sog‘liqni saqlash sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlatlar tug‘ilishni rag‘batlantirish, pensiya tizimini isloh qilish, keksalar bandligini qo‘llab-quvvatlash va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston aholisining qarish darajasi ortib borishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va mamlakatning demografik kelajagini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suramiz.

Birinchidan, “yosh keksa” (pensiya yoshiga yaqinlashgan, ammo mehnatga qodir) fuqarolarni iste’mol jamg’armalari asosida ish bilan ta’minlash tizimini joriy etish. Bu choralar orqali keksa avlodning iqtisodiy faolligini saqlab qolish va ijtimoiy izolyatsiyani oldini olish mumkin;

Ikkinchidan, pensiya fondining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun imtiyozli pensiyalarni ko‘paytirish va fond resurslarini optimallashtirish choralarini ko‘rish. Bu nafaqat byudjet yukini kamaytiradi, balki keksa aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi;

Uchinchidan, pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirishni mamlakat modernizatsiyasining asosiy omili sifatida qabul qilish. Bu choralar orqali mehnat resurslarini samarali boshqarish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin, bu sog’liqni saqlash va ta’lim tizimlarini qarish jarayoniga moslashtirish zarur.

Ushbu takliflar O‘zbekistonning demografik kelajagini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar va siyosiy qarorlar ushbu masalalarga chuqurroq e’tibor qaratishi lozim deb o‘ylaymiz. Shuningdek, ushbu takliflar demografik o‘zgarishlarni iqtisodiy rivojlanishga moslashtirishga qaratilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish orqali jamiyatning barqarorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.03.2024 yildagi PQ-114-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori

2.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi O‘RQ-611-son Qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-son Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida

5. Matkarimova I.A. “Aholi statistikasi”. “Xorazm” nashriyoti. Uslubiy qo‘llanma – Urganch 2024 yil, 60 bet.

6. Matkarimova I.A., Egamov B.N. O‘zbekiston hududida aholini ro‘yhatga olish tarixi va bugun. // Ma’mun science” jurnali, 2023, 1-jild, 2-son. Toshkent, 2023. - 213-219 b. ISSN 2181-0000.DOI, Journal 10.26739/2181-0000.

7. Караханов М.К. Некапиталистическая пут развития и проблемы народа населеня. - Т.: Mexnat, 1083. - с. 140.

8. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистон многонатsионалный: историко-демографический аспект. - Т.: Fan, 1998. - с. 140.

9. R.A.Ubaydullaeva. Sotsiologiya darsligi (darslik, 1999 yil, hammualliflikda).https://yangiasr.uz/files/books/2025-05-14-11-08-25_c419171b185611e2191c613945458cf8.pdf

10. https://daryo.uz/uz/2024/07/12/bmt-dunyo-aholisi-soni-qachon-maksimal-darajaga-yetishini-ochiqladi/

11. BMTning World Population Prospects 2024 (onlayn nashr), medium variant va probabilistic fayllardan olingan o‘rtacha raqamlar. Link: https://population.un.org/wpp

12. https://stat.uz

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti